

## KOSTYUM TARIXI

*Teshaboyeva Mahliyo Akmaljon qizi*

*Fargʻona viloyati Fargʻona transport va servis texnikumi*

*“Kostyum kompozitsiyasi” fani oʻqituvchisi*

**Annotatsiya:** Kostyum tarixi fanini oʻqitishning afzallik tomonlari va yaratilish tarixi haqida fikr yuritishga oʻrgatishdir. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan asrda oʻquvchilarga Kostyum tarixi haqida chuqur bilim va koʻnikmalar berish hamda ularning tasavvurlarini kengaytirish ushbu maqolaning maqsadidir.

**Tayanch iboralar:** Kiyim, dizayner, libos, kostyum, ustbosh kiyim, paypoq, oyoq kiyim.

Kiyim jamiyatning moddiy va maʼnaviy tarkibiy qismidir. "Kiyim" va "kostyum" tushunchalari oʻxshash boʻlsada, oʻziga yarasha farqqa ega. Kiyim inson ustidagi turli qoplamalarni oʻz ichiga oladi: ich, bosh, ustki va oyoq kiyimi, koʻylak, paypoq va hoqazo. Maqsadi va moʻljallanganligi boʻyicha bogʻliq aksessuar, bezak, soch turmagi, grim bilan toʻldirilgan kiyimlarga kostyum deb aytiladi. Aynan kostyum insonning ijtimoiy. va individual tasnifini, yoshini, jinsini, estetik didini aniqlovchi hisoblanadi. Zamonaviy kiyim dizayni, uni modellashtirish sohasida ijod qilayotgan, ish yuritayotgan har bir inson «kiyim», «kostum», «moda», «uslub» va boshqa soʻzlarga koʻp marotaba toʻqnash keldi. Bu koʻp maʼnoli soʻzlarning asosiy mazmuni ustida toʻxtalib oʻtaylik. Moda (frans. — meʼyor, usul maʼnosida) — bu inson faoliyatining ixtiyoriy sohasida: sanʼat, kiyinish, xulq-atvor hamda boshqa sohalaridagi maʼlum shakllarning tinmay oʻzgarishidir.

**Kostum** — vazifasiga, moʻljaliga binoan maʼlum darajada yigʻilgan kiyimlardir.

**Uslub** — qandaydir vaqt oraligʻida umumiy vosita va usullar bilan badiiy ifodalanishga aytiladi.

**Kolleksiya** (Lot. — yigʻilish, yigʻma, terma) — uslubi, konstruksiyasi, shakli, materiallarning oʻxshashligi asosida yigʻilgan yoki maʼlum bir badiiy obrazni ifoda etishga xizmat qiladigan kiyim modellari termasi.

**Ansambl** (frans. — toʻliq, tekis, uygʻun) — turli qismlardan yoki boʻlaklardan, kishilardan yigʻilgan bir butun maʼnosini bildiradi. Kiyimda esa ansambl oʻrniga baʼzan kostum soʻzi ishlatiladi. Biroq, modada kostum koʻpincha toliq sarponi: boshdan-oyoq, shlyapadan tortib poyabzalgacha, hatto ust kiyimgacha maʼnoni sigʻdirsa, baʼzan faqat yubkali kostumni (masalan: jaket bilan yubka yoki jaket, nimcha va yubka), shimli kostumni (masalan: erkaklarda pidjak bilan shim

yoki pidjak, nimcha va shim; ayollarda jaket bilan shim yoki jaket, bluzka va shim) yoki bo'lmasa faqat jaket, pidjakni anglatishi mumkin.

**Kostyum** — bu insonning individualligini yoki ijtimoiy guruhni ifodalovchi muayyan obrazli badiiy sistema. Yelka va bel kiyim, bosh kiyim, poyabzal, qo'shimchalar (aksessuarlar), bezaklar, grim, soch turmagi, tanani bo'yash, uning shaklini o'zgartirish — bularning barchasi birgalikda kostyumni tashkil etadi. Libos esa kiyim, ustbosh, odam egniga kiyadigan buyumlardir.

**Kiyim** — bu matodan qilingan, odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib, eng avvalo, tanani tashqi muxit sharoitidan saqlaydi va insonning o'ziga xos ba'zi xususiyatlarini namoyon qilib, estetik funksiyani bajaradi. Qadimdan hozirgacha insoniyat o'tmishi kostyum tarixida o'z aksini topgan. Har bir mamlakat, har bir halqning rivojlanish bosqichlari odamlarning kiyimida o'ziga xos xususiyatlarda ifodalangan. Kostyum shakli paydo bo'lishiga, uning o'zgarishiga, mukammallashib borishiga quyidagilar sabab bo'lgan: tabiiy omil — Koinot, yer, tashqi muxit, iqlim, fasl va b.; ijtimoiy-iqtisodiy omil — jamoaning tuzimi, halqning tarixiy taqdiri, etnik guruhi va millati, din, turmush tarzi, fan va texnika rivojlanishi va b.; insoniy omil — jinsi, yoshi, gavda tuzilishi, psixologik turi. Kostyum ushbu sabablarga ko'ra o'z tomonidan bir necha vazifani bajaradi: himoya, biostimulyasiya, erotik, ijtimoiy, belgi, estetik va b. Har qanday davr kostyumi san'at asari bo'lgan, chunki inson o'zining estetik didiga va tasavvuriga binoan badiiy obraz yaratgan. Kostyum davr va uslubga binoan o'zgarib turuvchi murakkab san'at asaridir va o'ziga xos kompozitsiyaga ega. Kostyum barcha san'at turlari bilan uyg'unlashadi, ayniqsa, me'morchilik bilan. Chunki me'morchilikda va kostyumda o'ziga xos tektonik tuzilishlar va konstruktiv aniqlik bor. Kostyum tarixini tadqiqot qilish uchun turli manbalardan foydalanish mumkin: davr va halq, tarixi, tasviriy san'at asarlari, amaliy san'at asarlari, adabiyot ma'lumotlari va saqlanib kolgan libos namunalari hamda moda jurnallaridan va b. Odamga eng yaqin buyum halqasi – kiyimdir. Poyabzal va qo'shimchalar kiyim elementlariga mos bo'lib, yaxlit ansamblni barpo etishi zarur. Oyoq kiyimda ham bir necha halqalarni ajratish mumkin – ichki (paypoq, kolgotkalar va b.) va sirtqi (poyabzal, chang'i, konki va b.). Ikkinchi buyum halqasi – polni qoplamasi va maishiy anjomlar. Uchinchisi – mebel va to'rtinchisi – me'mordir. Shu tarzda kostyum dizayni industrial, landshaft va muhit dizayni buyumlari bilan chambarchas bog'liq. Qadimdan odamzod o'z ijodida hajmiy shakllarning uyg'unlik asoslarini e'tiborga olishga intilishgan. Bu mutlaqo original va fundamental nazariyasi proportsiyalar, formal elementlarni ideallanishdan kelib chiqmasdan, shakllantirish bilimiga asoslanadi. Shakllantirishni assotsiativ-siyimli tomoni muallifni shaxsiy fantaziyasiga taalluqli. Kelajak dizaynerlar o'z g'oyalarini muhimligiga ishonishi zarur va o'z fikrini, hattoki ongsiz

bo'lsa ham, rag'batlantirishi kerak. Bu holda ijodiy mashqlarni tez bajarish uchun mahsus usul– o'yin paydo bo'ladi.

Dizayner kostyum kolleksiyasini yaratishda ijodiy manba sifatida har qanday tabiiy hodisalar, buyum muhitning turli elementlari, dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, musiqa, rangtasvir, adabiyot, balet, teatr, sirk, kino, tomosha tadbirlari, etnik mavzular, me'morchilik, muhandislik inshoatlari, mashina detallari, turli mexanizmlar, maishiy buyumlar, amaliy san'at asarlari (shisha, tosh, yog'och, metall, keramika va b.), musiqa asboblari, yer fakturasi, yulduzli osmon, origami o'yini, ekologiya, tarixiy, xalq va klassik kostyumlar, eklektika usuli, parodiya usuli, stilizatsiyalash usuli va h.k. bo'lishi mumkin. Har bir dizayner o'z faoliyatining muayyan bosqichida tarixiy va xalq an'analari bilan ilhomlanib, ijodiy manbalarga murojat qiladi. Ekzotik mamlakatlarning madaniyati ko'p badiiy uslublarda g'oya o'zlashtirish moda tarixida doimo bo'lgan. XX asr modasi ko'pincha etnik va tarixiy manbalarga murojat qilgan. Klassik shaklni va egzotik xalqlardan o'zlashtirilgan bezakni birga qo'shib, modellarni barpo etadigan dizaynerlar avlodi paydo bo'ldi, masalan, J.P.Gotening «eskimos» kolleksiyasi. Tabiat azaldan inson uchun ish maydoni bo'lgan. Tashqi dunyoni tushunish va o'rganish ehtiyoji uning qonunlarini o'rganishga va o'zlashtirishga olib keladi. Asrlar mobaynida ma'lumot yig'ib, odamzod bionika (yunoncha biou – «hayot elementi») fanni barpo etdi. Bu yo'nalish 1950 yillarning oxirida paydo bo'ldi. Ushbu fanning asosiy maqsadi – biologik tizimlar va jarayonlarning imkoniyatlarini o'rganish edi. Leonardo da Vinchi, N.E.Jukovskiy, L.Galvani bionikaning kashfiyotchilari deb hisoblasa bo'ladi. XIX-XX asrlar oralig'ida paydo bo'lgan badiiy uslub Modern jonli tabiatga asoslangan va aynan shu davrda cheklangan me'morchilik imperiyasi paydo bo'ldi. Ispan me'mori A.Gaudining ishlari bunga yorqin dadil. Uning ishlarida egri chiziqli yuzalar me'mor konstruktiv shakllarni biologizatsiyalanishi desa bo'ladi. Bionika boshqa sohalarda jadal tarqaldi: maishiy texnikada, harbiy sanoatda (suv osti kemalarining shakli baliq shaklida) va b. Zamonaviy kostyumda bionikaning timsoli chakamug' o'simlikning tikani asosida kashf etilgan «velkro» tasmasi keng qo'llaniladi. Tabiat million yillar davomida durdona asarlar yaratib, o'z mahoratini doimo oshiradi. Tabiatning organik va mantiqiy bog'liqlari mujassamlashgan yangi shakllarni yaratish imkoniyatni topish, zamonaviy dizayn yangi yo'nalishning asosiy vazifasi bo'ldi, bunga o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan bionika va kristallografiya katta ta'sir etmoqda. Ularning asosida ko'p obyektlar va dizayn buyumlari (aksesuarlar, zargarlik buyumlari va b.) barpo etilmoqda. Jonli tabiatda yashash jarayoni organik ma'qullik bilan bog'liq. Huddi shunday odam ham o'z faoliyatida istagan natijaga erishishga intiladi. Muammoni yechish uchun birinchi planga buyumning ko'pfunksionalligi chiqadi, ya'ni buyumlar bir necha mo'ljalda qo'llash mumkinligi. Bu muammoni transformatsiyasiz yechish mumkin emas (bu usulni 1920

yillarda konstruktivistlar taqdim etishgandi, ammo u hozirgi kunlarda amalga oshirildi).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hasanboyeva G.K., Chursina V.A., «Kostyum va moda tarixi», Toshkent O'zbekiston 2002 y.
2. Brun V., Tilke M. «Vseobshaya istoriya kostyuma» Moskva EKSMO 2005.
3. Komissarjevskiy F.V. «Istoriya kostyuma» Moskva «Astrel» AST. Lyuks 2005.
4. Parmon F.M. «Kompozitsiya kostyuma» M. «Legpromizdat» 1997
5. Mirziyoyev Sh.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurttaraqqiyoti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. - T.: «O'zbekiston», 2017. - 48 b.
6. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: «O'zbekiston». - 2017, - 102b.